

DARAJALANISH QONUNIYATLARINING O`ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI TADQIQI VA LEKSIKOGRAFIK TALQINI

Kasimova Muqaddas Bekpo`latovna

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7528003>

Annotatsiya: Maqolada darajalanish qonuniyatlari va uning o`zbek tilshunosligidagi tadqiqi masalalari, so`z ma`nolaridagi darajalanish hodisalarining lug`atlarda namoyon bo`lishi, tilshunos olimlar tadqiqotlarida graduonimik qatorlarning shakllanish asoslari va lisoniy ko`rinishlari haqidagi ilmiy ma`lumotlar aks ettirilgan.

Kalit so`zlar: graduonimik qatorlar, darajalomlar, neytral so`z, ma`noning manfiy tomonga pasayishi, musbat taraf bo`yoqdorlikning oshishi, g`ayrilisoniy asos, sof lisoniy asos

Darajalanish qonuniyatlari va uning o`zbek tilshunosligidagi tadqiqi masalalari rang-barangdir. Darajalanish hodisalarining lug`atlarda namoyon bo`lishi masalasi bilan tilshunos olimlar: I.Islomov va Sh.Bobojonovlar "O`zbek tilining so`zlar darajalanish o`quv lug`ati"ni tuzishgan ushbu o`quv lug`atda so`zlar darajalanishining ma`noviy, hajmiy, miqdoriy ko`rsatkichlar asosida amalga oshishi misollar yordamida dalillangan. Tadqiqotchi M.Otaboyeva darajalanish haqida fikr yuritib, o`zbek tilshunosligida darajalanish hodisasini monografik usulda tadqiq qilgan O.Bozorovning quyidagi fikriga qo`shilishini bayon qiladi: "...darajalanish qatorining a`zolarini (ularning mavqelari bo`yicha joylanishlarini hisobga olib) quyi, oraliq va yuqori darajalomlar (graduonimiklar) deb atasa bo`ladi.

Graduonimik qatorning shakllanish asosi shu qatorning boshida (belgining ozdan ko`pga borishida), o`rtasida (belgining bir tomonga oshib, ikkinchi tomonga kamayib borishida) va oxirida (belgining ko`pdan ozga kamayib ketishida) joylanishi mumkin". Bunday darajalanish qatorlari

$...-3\leftarrow-2\leftarrow-1\leftarrow 0\rightarrow+1\rightarrow+2\rightarrow+3...$

shaklidagi formulada aks ettirilishi ham ta`kidlab o`tiladi. Unga ko`ra "0" darajalanish qatoridagi neytral so`zdan ma`noning manfiy tomonga pasayishi yoki so`z salbiy ma`nosining o`shishi kuzatilsa, musbat tarafga qarab esa ma`noning yoki so`z ma`nosidagi ijobiy bo`yoqdorlikning ortishini sezish mumkin. Shuningdek, 0 nuqtadan o`ng va chap tomondagi a`zolar o`zaro ma`nodosh, o`z navbatida, har ikki qutb bir-biriga qarama-qarshi ma`noli so`zlardan iborat bo`ladi. Olim ilmiy ishida so`zlarni binar oppozitsiyaga qo`yar ekan, ular orasida, albatta, uchinchi oraliq mavjud, deb hisoblaydi va shu fikrlari orqali graduonimik qatorlar

shakllanishini ifodalab beradi. Soʻzlar orasidagi graduonimiya hodisasi eng kamida uch va undan ortiq aʼzoli qatorda namoyon boʻladi: *yurmoq*→*yugurmoq*→*yelmoq*;

boyimoq→*kambagʻallashmoq*→*nochorlashmoq*.

Biroq quyidagi fikrni ham keltirib oʻtadi:“...darajalanish qatorining lisoniy koʻrinish jihatdan ikki aʼzoli turi ham borday tuyuladi. Misol uchun, joʻja—tovuq munosabatini olib koʻraylik. Bu yerdagi asl hodisaga diqqat qilinadigan boʻlsa, unda

tuxumdan endigina chiqqan joʻja.., bir kunlik joʻja.., bir oylik joʻja tovuq kabi tabiiy darajalanishlarga duch kelamiz. Joʻja—tovuq tipidagi graduonimik qatorning har bir aʼzosi nutqda boshqa vositalar bilan ifodalana oladigan darajalanish imkoniyatlariga egaki, bular zaminida kuchuk—it, joʻja—tovuq kabi zidlanuvlar”¹ mavjud, deb fikrini bayon qiladi.

Professor B.Mengliyev tomonidan yaratilgan “Hozirgi oʻzbek tili” darsligi hamda Sh.Bobojonov va I.Islomovlarning “Oʻzbek tilining soʻzlar darajalanish oʻquv lugʻati”da graduonimiya hodisasi “oʻrta” soʻzi misolida tushuntirib berilgan. “Lugʻaviy birliklar oʻzaro maʼnoviy munosabatiga koʻra maʼlum bir darajalanish qatorini hosil etishi fanga qadimdan maʼlum va uning eng yorqin namunasi - oʻrta soʻzini oʻz ichiga olgan soʻzlar qatori. Masalan:

katta - oʻrta - kichik
yosh - oʻrta - qari
uzoq - oʻrta - yaqin
baland - oʻrta - past
uzun - oʻrta - qisqa.

Maʼlumki oʻrta soʻzi bilan ifodalangan belgi-xususiyat tom maʼnoda oʻrtalik, oraliq, yaʼni ikki bir-biriga zid belgi oraligʻidagi holatni koʻrsatadi. Oʻrta leksemasi antonimlar oraligʻidan oʻrin olsa, katta - oʻrta - kichik darajalanishi kam seziladi. Lekin oʻrta leksemali birliklarni zid belgi asosida emas, maʼlum bir belgining kamayishi yoki oʻsishi asosida idrok etilsa, maʼnoviy darajalanish yaqqol anglashiladi.

Darajalanish qatori aʼzolari kamida uchta boʻladi. Darajalanish munosabatlari bilan bogʻlangan soʻzlar qatorini:

- a) gʻayrilisoniy asos;
- b) sof lisoniy asosga tayanib ajratish mumkin.

¹ Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 152 б.

G`ayrilisoniy omilning mohiyati shundaki, borliqdagi narsa, belgi-xususiyatda sifat farqi bilan birga miqdor farqi ham mavjud. Masalan, inson go`daklik, yoshlik, navqironlik, yetuklik, qarilik holatini, o`simlik navnihollik, ko`chatlik, yetilganlik, quriganlik davrini boshidan kechiradi – o`sadi. Tabiatdagi rang va boshqa belgilar shunchalik xilma-xilki, bo`yoqchilar birgina qora rangning hatto o`ndan ortiq turini ajratadilar. Insonning faol ongi ana shu miqdoriy va sifatiy farqni aks ettiradi. Til ongning ifodasi bo`lganligi bois u ongdagi aks ettirilgan mana shunday miqdoriy farqlarni ham ifodalashi lozim. Bunday miqdoriy farq turli usul bilan, jumladan, alohida-alohida leksema bilan ham ifodalanadi. Chunonchi, nihol – ko`chat – daraxt, ninni – chaqaloq, go`dak – bola, buzoq – tana – g`unajin – sigir kabi”².

Tilshunos olim o`z fikrini davom ettirib Graduonimik qatorlarni ajratishdagi ma`noviy omilning mohiyati haqida ham qimmatli fikrlar berib o`tadi. Bir qator leksemalar sememasida ma`lum bir belgining oz-ko`pligiga, turli xil darajalariga ishora mavjud. Masalan, *ayb-gunoh-jinoyat (ijtimoiy zararining kuchliligiga ko`ra)* leksemasining “O`zbek tili izohli lug`ati”dagi izohini kuzataylik:

1. Ayb – [a. — nuqson] 1 Rasm-qoidaga yoki odob-axloq me`yorlariga xilof ish, xatti-harakat; gunoh. *O`z aybiga iqror bo`lmoq. Aybini bo`yniga qo`ymoq. Aybini yashirgan o`ngmas.* Maqol. *U Oyqizning yoniga keldi-da, aybiga iqror bo`lgan gunohkordek, ma`yus-lik bilan gapirdi.* Sh. Rashidov. G`oliblar.³
2. Gunoh – [f. - ayb] 1 *din.* Shariat qonuniga, diniy aqidalarga xilof ish, xatti-harakat. *Domla g`uldiragan ovoz bilan po`pisa qildi: -Xudoning qudratiga shak keltirmang. Gunohingizni orttirasiz. Sizning hamma qilmishingiz gunoh.* P. Tursun, O`qituvchi. *Kalomi sharifda yozilishicha, yig`i-sig`i Olloh taoloning irodasiga qarshi borish bilan barobar gunohdir.* K. Yashin, Hamza.

2 Odob-axloq doirasiga sig`maydigan ish, nojo`ya xatti-harakat; jinoyat; ayb. - *Nima gunoh qilibdi shu go`dak? — deb o`yladi Normat.* I. Rahim, Chin muhabbat. *Bir bechoraga tuhmat qilishsa-yu, bila turib, ko`ra turib, jim o`tirsam, gunoh bo`lmaydimi?*M. Ismoilij, Farg`ona tong otguncha. *Otabeklar nega qamaldi-lar, qanday gunohlari bor ekan?* A. Qodiriy, O`tgan kunlar. -*Shoshmang, dada, —*

² Mengliyev B. Hozirgi o`zbek tili. Darslik. T.: “Tafakkur bo`stoni” 2018. – 169-b

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б.73.

Gulnor uning soʻzini kesib qichqirdi. — Nega Yoʻlchiga jazo berasiz, unda hech gunoh yoʻq. Oybek, Tanlangan asarlar.⁴

3. Jinoyat – [a. - ayb, gunoh; jinoiy ish] 1 huq. Davlat qonunlari bilan belgilangan tartibga xilof va shu qonun-larga asosan javobgarlikka tortishni talab qiladigan, jamoat uchun xavfli xatti-harakat. *Ogʻir jinoyat. Amaldan foydalanib qilingan jinoyat. Jinoyat ustida ushlamoq. sht Tergov tugashi uchun esa jinoyatga iqror boʻlish kerak. H. Gʻulom, Mashʼal. Bir marta jinoyat qilgan odam oʻsha jinoyatini yopish uchun yana oʻn marta jinoyat qilishdan ham qaytmas ekan. N. Fozilov, Diydor.*

2 koʻchma Yomon oqibatlariga olib boradigan zararli xatti-harakat, ish; gunoh. *Bas, siz bilan biz, Tojiboy aka, bu ishga rahbarlik qilish oʻrniga qoʻl siltar ekanmiz, jinoyat qilgan boʻlamiz va buning uchun xalq, oldida javobgar boʻlamiz. P. Tursun, Oʻqituvchi. Bunday ishni kechiktirish jinoyat. Sh. Rashidov, Gʻoliblar.⁵*

Ajratilgan soʻzlar miqdoriy koʻrsatkichlarni ifodalovchi leksemalar ekanligi oydinlashadi. Boshqa bir misolda ham shu hodisani kuzatishimiz mumkin.

Masalan: *Jonlanish - rivojlanish - uygʻonish*
(*tushuncha belgisini keng ifodalashiga koʻra*)

1. Jonlanish – 1. Jonlanmoq feʼl. Harakat nomi.

2 Harakatga, joʻshga kelish; koʻtarinki ruh. *Mashshoqlar ashula boshlab yubordilar. Odamlar oʻrtasida shivir-shivir, jonlanish boshlandi. S. Zunnunova, Gulxan. Jonlanish, gap, kulgi bir-biriga qoʻshilib, zal shov-shuv boʻlib ketdi. P. Qodirov, Uch ildiz.*

3. Rivojlanish; olgʻa bosish. *Ishdagi jonlanish maoshga ham taʼsir qildi.⁶*

2. Rivojlanish – 1 Ravnaq topmoq, taraqqiy etmoq, oʻsmoq; yuksalmoq, gullab-yashnamoq. *Bu hamkorlik bugungi kunda yanada rivojlanib, yangi-yangi ufqlar ochmoqda. Gazetadan. Yaxshilik va farovonlik ildizi ilm bilan rivojlanadi. Gazetadan. Donishmand xalqning ogʻzaki ijodi asrlar osha avloddan avlodga, tillardan tillarga oʻtib yashab, rivojlanib keladi. Gazetadan. Qishloqda rivojlangan infratuzilmani barpo etsakkina, qishloq xoʻjaligida keskin oʻzgarishlar roʻy berishi mumkin. Gazetadan.*

2. Oʻsib-unmoq, ulgʻaymoq, avj olmoq. *Ekinlar yaxshi rivojlanmoqda. sht Yaxshi parvarish qilingan gʻoʻzalar mavj urib rivojlanyapti. Gazetadan.⁷*

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б.525.

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б.104.

⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б.106.

3. Uyg`onish – Uyg`onmoq fe'l harakat nomi. *Kurtaklarning uyg`onish davri. Mehr uyg`onishi. Hasanali Ertalab Oybodoqning choyiga bormay, Otabekning uyg`onishini kutib yurdi. A. Qodiriy, O'tkan kunlar. Elmurod asrlar bo`yi g`aflatda yotgan kishilarning uyg`onishi bu odamda quvonch tug`dirayotganini ko`rdi. P. Tursun, O`qituvchi.*⁸

Yuqoridagi tavsiflardan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, "O'zbek tili izohli lug`at"laridagi graduonimik qatorlarning tavsifi mukammal emas, sababi ushbu holatda ular o'zining graduonimik (darajalanish) tizimidan uzib tavsiflangan. Bu esa graduonimiya hodisasini to'liq tushunish uchun yetarli emas. Yangitdan yaratilishi ko'zda tutilayotgan "O'zbek tili izohli lug`ati"da graduonimlarni berayotganda graduonimik qatorlarning ketma-ketligiga hamda maxsus alohida GR qisqartmali pometaga e'tibor bilan berilishi lozim

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1997.
2. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. T.: "Tafakkur bo'stoni" 2018.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Учинчи жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тўртинчи жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006.

⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Учинчи жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б.382.

⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тўртинчи жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б.287.